

UO‘K(UDC, УДК): 82-821

TEODOR DRAYZERNING “BAXTIQARO KERRI” ROMANI**EKSPOZITSIYASINING TARJIMASIGA DOIR¹⁹***Atabayeva Nilufar Atamuratovna**Urganch davlat universiteti,**Xorijiy filologiya fakulteti**mustaqil tadqiqotchisi,**Urganch, O‘zbekiston**E-mail: nilufaratabayeva1983@gmail.com***ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada mashhur amerikalik yozuvchi Teodor Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” romanining ekspozitsiya qismi tahlil qilingan. Asarda syujetning boshlanishi, muhit va bosh qahramonning dastlabki xarakteri qanday aks ettirilgani o‘rganilgan. Muallif romanning ingliz tilidagi asliyati bilan uning o‘zbekcha (tarjimon: Erkin Nosirov) va ruscha (tarjimon: M. Volosov) tarjimalari o‘zaro qiyoslab tahlil etilgan. Qiyosiy tahlil orqali tarjimonlarning uslubiy yondashuvi, semantik aniqlik, milliy-madaniy tafovutlarni ifodalashdagi mahorati ochib berilgan. Shuningdek, tarjimalarda muallif uslubining saqlanish darajasi, personaj xarakteri va matn ruhiyatining uzatilishi kabi jihatlar ham o‘rganilgan. Maqola tarjimashunoslik hamda adabiy matn tahlili sohalariga qiziquvchilar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tarjima jarayonida yuzaga keladigan lingvokulturologik muammolarni yoritishda xizmat qiladi.

KALIT SO‘ZLAR

Ekspozitsiya, syujet, tarjima, qiyosiy tahlil, asliyat, tarjima nashrlar, romanning o‘zbekcha nusxasi, romanning ruscha nusxasi.

Received: September 5, 2025**Accepted:** October 9, 2025**Available online:** November 16, 2025¹⁹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Atabayeva N. Teodor Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” romani ekspozitsiyasining tarjimasiga doir. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 259-272.

**ABOUT THE TRANSLATION OF THE EXPOSITION OF NOVEL
“SISTER CARRIE” BY THEODORE DREISER**

Atabaeva Nilufar Atamuratovna
Independent researcher of
Urgench State University,
Faculty of Foreign Philology
Urgench, Uzbekistan

E-mail: nilufaratabayeva1983@gmail.com

ABSTRACT

This article analyzes the exposition of the novel “Sister Carrie” by renowned American writer Theodore Dreiser. The study examines the beginning of the plot, the setting, and how the initial character of the protagonist is portrayed in the work. The author comparatively analyzes the original English version of the novel with its Uzbek (translated by Erkin Nosirov) and Russian (translated by M. Volosov) translations. Through comparative analysis, the translators’ stylistic approaches, semantic accuracy, and skill in expressing national-cultural differences are revealed. Additionally, aspects such as the degree to which the author’s style is preserved in the translations, the portrayal of character development, and the conveyance of the text’s mood are also examined. The article has theoretical and practical significance for those interested in translation studies and literary text analysis, and serves to illuminate the linguocultural challenges that arise in the translation process.

KEY WORDS

Exposition, plot, translation, comparative analysis, originality, translated editions, Uzbek version of the novel, Russian version of the novel.

**О ПЕРЕВОДЕ ЭКСПОЗИЦИИ РОМАНА ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА
«СЕСТРА КЕРРИ»**

Атабаева Нилуфар Атамуратовна

независимый исследователь,

факультет зарубежной филологии,

Ургенчский государственный университет,

Ургенч, Узбекистан

E-mail: nilufaratabayeva1983@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется экспозиционная часть романа «Сестра Керри» известного американского писателя Теодора Драйзера. В работе рассматриваются особенности изображения предваряющих завязку событий, среды и исходных черт характера главного героя. Автором статьи был осуществлен сопоставительный анализ английского оригинала романа с его узбекским (переводчик Э. Носиров) и русским (переводчик М. Волосов) переводами. С помощью сравнительного анализа установлены стилистические особенности, характерные для каждого из переводов, показано мастерство переводчиков, проявившееся в сохранении смысловой точности и передача при переводе национально-культурной специфики. Также были изучены такие аспекты, как степень сохранности авторского стиля в переводах, передача характера персонажа и психологизма текста. Статья имеет теоретическое и практическое значение для тех, кто интересуется переводоведением и анализом литературного текста, и служит для освещения лингвокультурологических проблем, возникающих в процессе перевода.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Экспозиция, сюжет, перевод, сравнительный анализ, оригинальность, переводные издания, узбекский перевод романа, русский перевод романа.

KIRISH

Nazariy adabiyotlarda “syujet”ni tashkil qiluvchi unsurlar sifatida ekspozitsiya, tugun, voqea rivoji, kulminatsiya, yechim ko‘rsatiladi (Quronov D., 2018, 173). Ekspozitsiya qismi syujetning boshlanmasi hisoblanadi. Odatda, yirik asarlarning, jumladan, roman ekspozitsiyasida muallif kitobxonni voqealar yuz beradigan joy, makon, personajlar, ularning tashqi va ichki ruhiy portreti, asar markaziga qo‘yilayotgan bosh muammo bilan sekin-asta tanishtira boradi. Umuman olganda, roman ekspozitsiyasi ham syujetning yoki umuman badiiy matnning muhim unsuri sanaladi. Aristotel o‘zining “Poetika” asarida ekspozitsiya haqida to‘xtalar ekan, uni nasriy asardagi o‘rni haqida bevosita tilga olmagan bo‘lsa-da, u dramatik asar, asosan, tragediyaning “kirish” qismi sifatida qayd qiladi: unda syujetga zarur sharoit, vaqt, joy, qahramonlar va dastlabki holat belgilanishini ta’kidlaydi (Аристотель, 1983, 21-22).

XX asr adabiyotshunosligida barcha adabiy muammolar kabi syujet va aynan ekspozitsiya haqida turli qarashlar paydo bo‘ladi. Rus olimi Viktor Borisovich Shklovskiy va Boris Viktorovich Tomashevskiy o‘z tadqiqotlarida badiiy asarda ekspozitsiyaning roli va yozuvchi mahorati haqida muayyan mulohazalar bildiradilar. Jumladan, Tomashevskiy “Thematics” (Tematika) nomli asarida hikoya tuzilishida “ekspozitsiya” turli shakllar bilan namoyon bo‘lishi mumkinligini aytadi. U ekspozitsiyaga quyidagilarni kiritadi:

- **immediate exposition** (to‘g‘ridan-to‘g‘ri, darhol tushuntirish) – hikoyaning boshlanishida zarur ma’lumotlar darhol beriladi.

- **delayed exposition** (kechiktirilgan ekspozitsiya) – zarur ma’lumotlar hikoya davomida bosqichma-bosqich ochiladi.

- **transposed exposition** (ko‘chirilgan / vaqt jihatdan o‘zgartirilgan): bu tur hikoyada bir butun bo‘lim vaqt jihatdan siljirilgan holda berilishi mumkin – ya’ni, ma’lumotlar keyinroq, vaqtni siljitish bilan taqdim etiladi.

Bu o‘rinda, amerika yozuvchisi Teodor Drayzerning mashhur romani “Baxtiqaro Kerri” asarining ekspozitsiya qismining o‘zbek va rus tillariga tarjima nusxalarini asliyat bilan qiyoslab, tarjimon mahoratini tadqiq etamiz. Roman

ekspozitsiyasi ya'ni 1-bob "Ohanraboning maftunkor kuchi. Stixiya hukmida" sarlavhasi bilan nomlangan. T.Drayzer, odatda, roman kompozitsiyasini tartibli ravishda tuzish maqsadida syujet voqealarini boblarda yoritadi. Ayni paytda har bir bob sarlavhalar bilan ta'minlangan. Sarlavhalarda badiiy asarda ifoda etilmoqchi bo'lgan g'oya va mavzu qisqa hamda ixcham tarzda aks etadi. Bu holatni Teodor Drayzerning roman ichki sarlavhalarini nomlashida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, yuqorida tilga olganimiz roman ekspozitsiyasi, ya'ni 1-bob "Ohanraboning maftunkor kuchi. Stixiya hukmida" deb atalar ekan, sarlavhadagi "Ohanrabo" – bu Drue bo'lsa, "stixiya hukmida"gi qiz bu – Kerri hisoblanadi. Shahar havosini olgan, kalondimog', ayollarni o'lja qilib olishga ustomon Charlz Drue Ohanrabo singari o'n sakkiz yashar qizcha Kerrini o'ziga e'tiborini qarata oladi. Bu voqea romanning ekspozitsiya qismidayoq kitobxonga tanishtiriladi.

ASOSIY QISM

Baxtiqaro Kerri" romani ekspozitsiyasi asar bosh qahramoni Karolina Miberning poyezdda ulkan orzular og'ushida Chikagoga opasinikiga ish izlab yo'lga chiqish voqeasi bilan boshlanadi. Roman qahramoni Karolina Miber oilada "Kerri" deb laqab qo'yilgan qizcha o'zining kambag'alligidan, nochorligidan qattiq uyaladi. Roman ekspozitsiyasida Kerri xarakteriga aniq chizgilar beriladi. Masalan, Kerri tabiatan tortinchoq qiz, xudbin, ichida boylik va hashamatga o'chlik bor, bu uning beg'ubor orzularida badiiy ifodalangan. Kerri poyezdda kommivoyajer Drue bilan tanishadi. Roman ekspozitsiyasidayoq ko'rinish bergan olifta, ayollarning ko'nglini olishga urinuvchi jentlmen erkak, Kerrining taqdirini boshqacha o'zanlarga burib yuborgan Drue obrazi roman ekspozitsiyasidayoq tasvirlanadi.

Roman syujetida "qishloqdan shaharga yo'lga chiqib, shaharga baxt va boylik izlab kelgan qahramon motivi" shakllantirilgan. Asar ekspozitsiyasida quyidagi badiiy unsurlarni yozuvchi mahorat bilan yaratgan:

1. Bosh qahramon Karolina Miber (Kerri) Chikago poyezdida opasinikiga yo'lga chiqadi;
2. Karolinaning tashqi va ichki portret chizgilari beriladi;
3. Kommivoyajer Charlz Drue bilan tanishuv;

4. Druening tashqi va ichki ruhiy portretiga chizgilar;
5. Kerri va Drue o'rtasidagi suhbat muloqot (dialoglar, ichki monologlar);
6. Muallif bayoni va hokazolar.

Roman ekspozitsiyasini tashkil etgan bu qismlar badiiy tarjimada qanday aks etdi? Yoki ekspozitsiya qismida uchraydigan milliy realiyalar asliyatdan rus va o'zbek tillariga qay tarzda tarjima qilindi. Qiyosiy tahlil etamiz.

Asliyatda:

“When Caroline Meeber boarded the afternoon train for Chicago, her total outfit consisted of a small trunk, a cheap imitation alligator-skin satchel, a small lunch in a paper box, and a yellow leather snap purse, containing her ticket, a scrap of paper with her sister’s address in Van Buren Street, and four dollars in money.

It was in August, 1889. She was eighteen years of age, bright, timid, and full of the illusions of ignorance and youth. Whatever touch of regret at parting characterized her thoughts, it was certainly not for advantages now being given up. A gush of tears at her mother’s farewell kiss, a touch in her throat when the cars clacked by the flour mill where her father worked by the day, a pathetic sigh as the familiar green environs of the village passed in review, and the threads which bound her so lightly to girlhood and home were irretrievably broken” (Dreiser T., 1917, 7).

“Caroline, or Sister Carrie, as she had been half affectionately termed by the family, was possessed of a mind rudimentary in its power of observation and analysis. Self-interest with her was high, but not strong. It was, nevertheless, her guiding characteristic. Warm with the fancies of youth, pretty with the insipid prettiness of the formative period, possessed of a figure promising eventual shapeliness and an eye alight with certain native intelligence, she was a fair example of the middle American class two generations removed from the emigrant.

Books were beyond her interest knowledge a sealed book. In the intuitive graces she was still crude. She could scarcely toss her head gracefully. Her hands were almost ineffectual. The feet, though small, were set flatly. And yet she was

interested in her charms, quick to understand the keener pleasures of life, ambitious to gain in material things. A half-equipped little knight she was, venturing to reconnoiter the mysterious city and dreaming wild dreams of some vague, far-off supremacy, which should make it prey and subject the proper penitent, groveling at a woman's slipper (Dreiser T., 1917, 7).

Ruschada:

“Когда Каролина Мибер садилась в поезд, уходящий днем в Чикаго, все ее имущество заключалось в маленьком сундучке, дешевеньком чемодане из поддельной крокодиловой кожи, коробочке с завтраком и желтом кожаном кошельке, где лежали железнодорожный билет, клочок бумаги с адресом сестры, жившей на Ван-Бьюрен-стрит, и четыре доллара.

Это было в 1889 году. Каролине только что исполнилось восемнадцать лет. Девушка она была смышленная, но застенчивая, преисполненная иллюзий, свойственных неведению и молодости. Если, расставаясь с родными, она о чем-нибудь и жалела, то уж во всяком случае не о преимуществах той жизни, от которой она теперь отказывалась.

Слезы брызнули у нее из глаз, когда мать в последний раз поцеловала ее, в горле защекотало, когда поезд прогрохотал мимо мельницы, где поденно работал отец, глубокий вздох вырвался из груди, когда промелькнули знакомые зеленые окрестности города и навек были порваны узы, которые не слишком крепко привязывали ее к родному дому” (ДрайзерТ., 1987, 7).

“Каролина, или сестра Керри, как ее с оттенком ласковости называли в семье, обладала умом, в котором были еще совершенно не развиты способности к наблюдениям и анализу. Она была поглощена собой, и этот эгоизм, хотя и не слишком явный, был тем не менее основной чертой ее характера. Она была мила пресноватой миловидностью переходного возраста, сложение ее обещало в будущем приятную округлость форм, а глаза светились природной сметливостью, к тому же она была полна пылких мечтаний юности, – словом, перед нами прекрасный образец

американки среднего класса, которую лишь два поколения отделяют от прадедов – эмигрантов из Европы.

Чтение ничуть не увлекало Керри – мир знаний был для нее за семью замками. Она пока совсем еще не знала, что такое интуитивное кокетство. Она не умела игриво откидывать назад головку, часто не знала, куда девать руки, и хоть ножки у нее были маленькие, ступала она т я-жело. Однако ей хотелось пленять, она быстро усваивала, в чем заключаются радости жизни, и стремилась к материальным благам. Сестра Керри была плохо вооруженным маленьким рыцарем, который отважно ринулся на огромный, загадочный город, чтобы попытаться счастья, лелея безумную мечту о неясной, далекой победе, когда этот город – добыча и раб завоевателя – будет лежать распростертый под женской туфелькой” (ДрайзерТ., 1987, 382).

O‘zbekchada:

“Karolina Miber kunduzi Chikagoga yo‘l olgan poyezdga minganida qo‘lida sun‘iy timsoh terili arzonigina, mo‘jaz chamadonchadan bo‘lak hech vaqo yo‘q edi. Unda nonushta solingan quti, temir yo‘l chiptasi va Van-Byuren stritda istiqomat qiladigan opasining manzili yozilgan bir parcha qog‘oz-u to‘rt dollar pul solingan sariq charm hamyon bor edi, xolos.

Bu voqea 1889-yilda yuz berdi. Karolina endigina o‘n sakkizga to‘lgan. U esli-hushli biroq tortinchoqroq qiz bo‘lib, yoshlik va g‘o‘rlik yillarida kishini tinch qo‘ymaydigan shirin orzular olamida charx urardi. U ota-onasi bag‘ridan ketayotganida nimagadir yuragi uvishdi, biroq bunda, harqalay, hozirgina o‘zi yuz o‘g‘irgan hayotning afzal tomonlarini hayoliga ham keltirmadi.

Onasi so‘nggi bor o‘pganida uning ko‘zlaridan yoshi tirqiradi, poyezd otasi mardigorchilik qiladigan tegirmon yonidan o‘tganida tomog‘iga nimadir tiqildi, shaharning tanish yam-yashil chekkalari lipillab orqada qolib, uni ota uyi bilan bo‘shroq bog‘lab turgan rishta manguga uzilganda ko‘ksidan kuchli bir xo‘rsiniq otilib chiqdi” (Drayzer T., 2019, 3).

Asar bosh qahramoni Kerrining ichki xarakter xususiyati borasidagi jumalarni E. Nosirov juda katta mahorat bilan tarjima qilib, qahramonning

emotsional ruhiyatiga qaratilgan yozuvchining g‘oyasini o‘zbek kitobxoniga yetkazib bera olgan.

“Karolina yoki oilada erkalab atashganlaridek “jajji” Kerrining aqli hali tiniq emasdi. U tevarak-atrofidagi narsalarni kuzatib, ulardan o‘ziga kerakli xulosalar chiqara olmasdi. Uning xudbinligi ham tabiatiga monand bo‘lib, garchi aniq-ravshan sezilib turmasa-da harqalay, tabiatining asosiy belgisi deb hisoblasa bo‘lardi. Qizning qalbida yoshlik orzulari alangalanar, balog‘at yoshiga yetayotganidan husnda barkamol, qaddi-qomati ham raso bo‘ladigandek ko‘rinar, ko‘zlari esa tug‘ma o‘tkirlik ila boqardi. Qisqasi, Kerri faqat ota-onasi emas, bobokalonlari ham Amerikada o‘tgan o‘rtahol amerikalik ayolning go‘zal namunasi edi.

Kerrini mutolaa sira ham qiziqtirmas – bilim olami uning uchun berk edi. Noz-u karashma bobida unda tajriba borligi mutlaqo sezilmasdi. U boshini orqaga sho‘xchan tashlab qo‘yishni hali o‘rganmagan, qo‘llarining harakati ham beo‘xshov, ingichka oyoqlarini ham og‘ir-vazmin bosib yurardi. Shunday bo‘lsa-da u o‘ziga qarab yurar, hayot quvonchlariga bag‘rini ochar va moddiy ne‘matlarga zo‘r berib intilardi. Jajji Kerri bamisoli sirli shaharga baxt izlab chiqqan, yaxshilab qurollanmagan va fotihga o‘lja bo‘lgan bu shahar oyog‘im ostida yotibdi hisob, deb erishilmagan g‘alabalarning mubham orzusida yurgan kichkinagina ritsar edi” (Drayzer T., 2019, 3).

Asar bosh qahramoni Drueni yozuvchi nozik tabiat, xushfe‘l qahramon sifatida tasvirlagan. Tarjimonlar ham xuddi yozuvchi g‘oyasini o‘zbek kitobxoniga mahorat bilan yetkaza olganlar.

“Bu odam savdo xonadonining tipik kommivoyajeri bo‘lib, o‘sha davrning lahjasida “barabanchilar” deb nom olgan kishilar toifasiga mansub edi. Unga, shuningdek, “barabanchi” so‘zidan ancha keyinroq vujudga kelgan va o‘n to‘qqizinchi asrning oxirlarida xalq orasida tarqalgan, ko‘ngilchan yoshgina juvonlarning nazariga tushish va ko‘zini o‘ynatishni mo‘ljallab kiyinadigan va o‘zini nazokatli qilib ko‘rsatadigan kishilar qiyofasini belgilaydigan “olifta” degan so‘z ham yopishib tushar edi.

Jigarrang katak kostyum o‘sha paytlarda endigina rasm bo‘la boshlagandi, keyin esa ishbiarmonlarning bari shuni kiyishni odat qilishdi. Bu kishining shunday kostyum tagidan kiygan jiletining ochiq joyidan kraxmallab qotirilgan oq va binafsharang yo‘l-yo‘l ko‘ylagining ko‘krak qismi ko‘rinib turardi. Kostyumning yenglaridan o‘sha rangdagi ko‘ylagining oltin suvi yugurtirilgan va sariq aqiq ko‘zli katta ilma tugma qadalgan yeng uchlari ko‘zga tashlanardi. Aqiq toshni ko‘pincha “mushuk ko‘zi” deyishadi. Qo‘llarida esa bir necha uzuk yaltirar (ular orasida hamishagi muhrli uzuk ham bor edi, albatta), jiletining cho‘ntagidan soatning oltin zanjiri osilib turar, unga maxfiy Bug‘ilar tashkilotining nishoni taqib qo‘yilgandi. Egnidagi kostyumi bamisoli quyib qo‘yganday. Yaltiratib artilgan qalin tagcharmli botinkasi bilan yumshoqqina kulrang shlyapasi uni bekam-u ko‘st to‘kis ko‘rsatardi.”

Asliyatni birinchi berib, so‘ngra rus tarjimoni M.Volosova o‘girmasidagi tarjimadan parchani taqdim etdik. Chunki, o‘zbek mutarjimi E.Nosirov “Baxtiqaro Kerri” romanini asliyatdan emas, bilvosita til ruscha tarjimadan ona tilimizga tarjima qilgan. Har ikki tarjimon roman ekspozitsiyasini tarjima qilishda so‘zma-so‘z tarjima prinsipidan foydalangani qiyosiy o‘qish va fikrlash jarayonida ma’lum bo‘ladi. Qolaversa, roman ekspozitsiyasida uchraydigan shahar nomlari va milliy realiya so‘zlar o‘girmasini taqqoslaymiz.

1-jadval:

Asliyat	Ruscha tarjima (tarjimon M.Volosov)	O‘zbekcha tarjima (tarjimon E.Nosirov)
Canvasser	КОММИВОВАЖЕР	kommivoyajer (kasb)
Prairie	прерия	preriya (keng dala nomi)

E. Nosirov roman ekspozitsiyasida uchraydigan bu ikki so‘zga matn ostida izoh bergan. Quyida shu izoh: “kommivoyajer – burjua jamiyatida biror firmaning mollaridan nusxa ko‘rsatib, shaharma-shahar yurib buyurtma to‘plovchi odam” (Drayzer T., 2019, 6). Asliyatda “**kommivoyajer**” so‘zi “**canvasser**” tarzida

ishlatilgan. Inglizcha-ruscha lugʻatda **“canvasser – agitator”** – deb rus tiliga tarjima qilingan (Мюллер В.К., 2012, 68). Bizningcha, **“agitator”** soʻzi bilan **“kommivoyajer”** soʻzi bilan teng ekvivalent boʻla olmaydi. Rus tarjimoni tanlagan soʻz asliyatga mos tushmagani sababli, oʻzbek tarjimoni ham aynan shu xatoni takrorlagan. Bizningcha, asliyatdagi **“canvasser”** soʻziga koʻproq **“reklamachi”**, **“targʻibotchi”** soʻzlari koʻproq mos keladi.

Ikkinchi izoh: **“Preriya – Amerikadagi keng dala nomi”** (Drayzer T., 2019, 11). Tarjimon bu ikki soʻzni, kasb nomi va dala nomini oʻzbekchada qaytadan ifodalar ekan, oʻzbek auditoriyasiga bu soʻzlar notanish boʻlgani bois matn ostida izoh berishni ham unutmagan. Har ikki tarjimon Shimoliy Amerikada joylashgan preriya joy nomini transliteratsiya uslubi orqali oʻz ona tillariga oʻgirishgan. Nazarimizda, E.Nosirov **“preriya”** joy nomi izohida **“keng dala”** soʻzi oʻrniga **“adir”** soʻzini ishlatga maqsadga muvofiq boʻlar edi. Afsuski, E.Nosirov **“Baxtiqaro Kerri”** romanini oʻzbekchalashtirishda ikkinchi til orqali oʻgirgani uchunmi, tarjima jarayonida rus tarjimonining kamchilik va xatolarini aynan takrorlaydi. Chunki unga romanning ruscha nusxasi asos boʻlganini unutmasligimiz kerak. Ammo shunga qaramasdan, Amerika adabiyotining taniqli romannavisi T.Drayzerning durdona asarlaridan biri **“Kerri”** haqidagi asarni shoʻro davri tuzumidayoq oʻzbek kitobxonlariga tanishtirishi va targʻib etishi bu katta jasorat va mehnat edi.

Badiiy matn tarjimasida joy nomlari, qahramon ismlari, shahar nomlari, daryo, dengiz nomlari, koʻcha, parklar nomlarini tarjima qilish masalasi ham nihoyatda muhim jarayon hisoblanadi. Zero, nomlar va ismlar transliteratsiya va transkripsiya, fonetik tarjima usuli bilan ikkinchi tilga oʻgiriladi. Mutarjim joy nomlarinimi, shahar va daryolar nomlarinimi, qahramon ismlarinimi ikkinchi tilda toʻgʻri va aniq ifodalashga majburdir. Bu mutarjimdan katta zehn va diqqatni talab qiladigan hodisadir.

Transkripsiya va transliteratsiya bir-biriga yaqin, ammo farq qiluvchi tarjima usuli sanaladi. Transkripsiyada soʻzning talaffuz shakli hisobga olinsa, transliteratsiyada soʻzning grafik shakli asos qilib olinadi. **“Baxtiqaro Kerri”** romani ekspozitsiyasida uchraydigan qahramon ismlari, shahar nomlari, adir nomlari, kasb

nomlarini asliyat-ruscha-o‘zbekcha variantlarni taqqoslash maqsadida jadvalda uch ustunda beramiz:

2-jadval:

Asliyatda	Ruscha tarjima (tarjimon M.Volosov)	O‘zbekcha tarjima (tarjimon E.Nosirov)
Caroline Meeber	Каролина Мибер	Karolina Miber
Chicago	Чикаго	Chikago
Van Buren Street	Ван-Бьюрен-стрит	Van-Buurenstrit
Columbia City	Колумбия-сити	Kolumbiya-Siti
Carrie	Керри	Kerri
Wisconsin	Висконсин	Viskonsin (shtat)
Waukesha	Вокиш	Rokish (stansiya nomi)
Lincoln Park	Линкольн-парк	Linkolin park
Michigan Boulevard	бульвар Мичиган	Michigan xiyoboni
New York	Нью-Йорк	Nyu-York
Chas. H. Drouet	Чарльз Друэ	Charlz -Drue
State	Стэйт	Steyt
Lake Street	Лейк-стрит	Leyk-strit
Morgenroth	Моргенрот	Mergenrot
Gibson	Гибсон	Gibson
secret insignia of the Order of Elks	тайного ордена Лосей	Maxfiy Bug‘ular tashkiloti nishoni

Yuqorida jadvalda asliyat-ruscha-o‘zbekcha matnda uchraydigan qahramon ismlari, shahar nomlari, ko‘cha nomlari, shtat nomlari, bekat nomi, park nomi, savdo markaz nomlari, maxfiy tashkilot nomlari fonetik prinsip asosida transliteratsiya usuli orqali asl variantdan ikki tilga (rus va o‘zbek) o‘girilgani ma’lum bo‘ladi. Shu o‘rinda aytish lozim, “Van Buren Street”, “Lake Street” nomli ko‘cha nomlaridagi “street” so‘zining rus va o‘zbek tillarida aynan qoldirilishi juda to‘g‘ri ish bo‘lgan.

Masalan, o‘zbek tarjimoni “Van Byuren ko‘chasi” yoki rus tarjimoni “улица Ван-Бьюрен” shaklida o‘z milliy tillariga o‘girishi mumkin edi. Ammo tarjimonlarning asl matn va amerika milliy turmushi va hayotiga doir realiyalarni, amerikacha ruhni roman matnida to‘laroq aks ettirish maqsadida bu tipdagi so‘zlarni shu holicha transliteratsiya usuli orqali tarjima etishgani ma’qul variant bo‘lgan.

Roman ekspozitsiyasida uchraydigan bir bekat nomi asl variantda “Waukesha”, ruschada “Вокиш” o‘zbekchada esa “Rokish” tarzida ifodalangan. Bizningcha, katta tajribaga ega tarjimon E.Nosirov bu kabi xatoga yo‘l qo‘yishi aslo mumkin emas. E.Nosirov tarjimasidagi “Baxtiqaro Kerri” romanining ilk o‘zbekcha nashri bu savolimizga aniqlik kiritadi.

XULOSA

Xulosa shuki, amerika adabiyotining yirik romannavisi T.Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” romani ekspozitsiyasi asliyat bilan taqqoslanganda, rus va o‘zbek mutarjimlari M.Volosov va E.Nosirov tomonidan ba’zi bir kichik nuqsonlarga qaramasdan, katta mahorat bilan o‘z milliy tillariga tarjima qilingan. Tarjimonlar roman ekspozitsiya qismini, muallif g‘oyasini, uslubini, qahramonlar ichki va tashqi portreti tasvirlari, hamda emotsional ruhiyatini tasvirlashdagi ijodkorlik mahoratini aks ettirgan holda tarjima qilib, asliyatdagi ma’noni saqlab qolishga erishganlar. Bu tarjimalar o‘tgan asrning 80-yillarida amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramasdan, tarjima nusxalar salkam o‘ttiz yil umr yashab qo‘ygan bo‘lsa-da, bugungi kitobxonlarimiz uchun bimalol xizmat etishga qodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dreiser T. *Sister Carrie*. – Copyright by Horace Liveright, 1917. – 574 p.
2. Drayzer T. *Baxtiqaro Kerri* / Erkin Nosirov tarjimasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 560 b.
3. Musayev Q. *Tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent, 2005. – 352 b.
4. Quronov D. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Akadem nashr, 2018. – 480 b.
5. Аристотель. *Поэтика*. Перевод и комментарий М.Л. Гаспарова. - Издательство «Мысль», 1983. – 680 с.
6. Драйзер Т. *Сестра Керри* / перевод с английского М.Волосова – Москва: Художественная литература, 1987. – 580 с.
7. Мюллер В.К. *Большой современный англо-русский, русско-английский словарь*. – М.: Цитадель-трейд: Аделант, 2012. – 2106 с.

REFERENCES

1. Dreiser T. (1917). *Sister Carrie*. Copyright by Horace Liveright.
2. Dreiser T. (2019). *Sister Carrie* / Translated by Erkin Nosirov. Tashkent: New edition.
3. Musayev Q. (2005). *Fundamentals of Translation Theory*. Tashkent.
4. Kuronov D. (2018). *Fundamentals of Literary Theory*. Tashkent: Akademnashr.
5. Aristotle. (1983). *Poetics*. Translation and commentary by M.L. Gasparov. Publishing House “Mysl”.
6. Dreiser T. (1987). *Sister Carrie* / translated from English by M. Volosov. Moscow: Fiction.
7. Muller V.K. (2012). *The Great Modern English-Russian, Russian-English Dictionary*. M.: Citadel-Trade: Adelant.